

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Ro‘yxatga olindi:**  
№ \_\_\_\_\_

2022 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ Bozorov O.N.  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil

**«Buxgalteriya hisobi»**  
**fanidan**  
**(6-modul –Tarmoqlar va sohalarda buxgalteriya hisobi)**

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta’lim sohasi: 230000- Iqtisod

Ta’lim yo’nalishi: 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo’yicha)

**Qarshi – 2022 y**

Fanning ishchi o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019 yil "17" avgustdagi 4-son bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Ravshanov A.B.** –*“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o'qituvchi*

Fanning ishchi o'quv dasturi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil \_\_\_ avgustdagi №01-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va “Iqtisodiyot” fakulteti Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ dots. A. Aliqulov**

Fanning ishchi o'quv dasturi “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №\_\_\_, “\_\_\_” avgust 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №\_\_\_, “\_\_\_” \_\_\_\_\_2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

**O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i \_\_\_\_\_ dots. Sh. Turdiyev**

**Fakultet uslubiy komissiyasi raisi \_\_\_\_\_ dots. A. Qurbonov**

## KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin mavjud iqtisodiy tizim o'rniga jahon standartlariga mos demokratik huquqiy davlatni barpo etish modeli tanlab olindi. Shunday sharoitda eng avvalo ta'lim tizimining huquqiy asoslarni shakllantirish, islohotlarning qonuniy- huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2017-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" 4.4. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'limida: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish to'g'risida o'z ma'ruzalarida aytib o'tdilar.

Haqiqatan ham bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etishi, zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy qilinishi, bilimlarning tez yangilanib borishi, texnika va texnologiyaning kun sayin o'zgarishi oliy ta'limda talabalarning muntazam va mustaqil chuqur bilim olishlarini talab etadi.

Ushbu ishchi dastur iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyot real sektorlarida buxgalteriya hisobining o'rnini va ahamiyati, buxgalteriya hisobining metodlari va tamoyillari, buxgalteriya hisobining schyotlari tizimi, hujjatlashtirish va inventarizatsiya, buxgalteriya hisobining registrlari va shakllari, sub'ektlar mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, pul mablag'lari hisobi, mehnat va ish haqini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, investitsiyalar hisobi, asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi, mahsulot(ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, hisobotlarni tuzish va taqdim etish, uning meyoriy tartibga solinishi, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish hamda hozirgi kunda buxgalteriya hisobining rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasi va ustuvor vazifalari masalalarini qamraydi.

Ushbu ishchi o'quv dasturi "Buxgalteriya hisobi va audit" bakalavriat ta'lim yo'nalishining 4-bosqich talabalariga mo'ljallangan bo'lib 7-8-semestrda fan bo'yicha o'qitiladigan mavzularni o'z ichiga oladi.

## Fanning maqsad va vazifalari

**“Buxgalteriya hisobi” fanning asosiy maqsadi** – talabalarda buxgalteriya hisobining ob’ektlari, ya’ni xo’jalik mablag’lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo’jalik yuritish jarayonidagi harakati, xo’jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, korxona (tashkilot, muassasa)larning mulkiy, moliyaviy faoliyati va ular to’g’risidagi to’liq-ishonarli ma’lumotlarni shakllantirish hamda taqdim etish, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, uning me’yoriy huquqiy asoslari bo’yicha yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga xo’jalik yurituvchi sub’ektlardagi mablag’lar, ularning tashkil topish manbalarining harakatini to’g’ri aks ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma’lumotlarini realligini ta’minlash, tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to’g’ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me’yoriy hujjatlar asosida o’rgatishdan iborat.

### Fan bo’yicha talabalarning bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar

“Buxgalteriya hisobi” fanini o’zlashtirish jarayonida bakalavr:

- hisob, xo’jalik hisobi turlari;
- buxgalteriya hisobining predmeti, buxgalteriya hisobining usullari, buxgalteriya balansi, hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, buxgalteriya hisobining schyotlari va ikkiyoqlama yozuv, asosiy xo’jalik jarayonlari hisobi, buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari, buxgalteriya hisobini tashkil etish, xo’jalik mablag’lari va ularning tashkil topish manbalari, buxgalteriya hisobining ob’ektlari va sub’ektlari;
- pul mablag’lari va valyuta operatsiyalari hisobi, mehnat va ish haqini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, investitsiyalar hisobi, asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish, xususiy kapital hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, hisobotlarni tuzish va taqdim etish **haqida tasavvurga ega bo’lishi**;
- xo’jalik operatsiyalarini qayd etish va hisob registrlarida aks ettirish tartibi hamda moliyaviy hisobot ko’rsatkichlarini shakllantirishni;
- samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ichki hisob va hisobot ma’lumotlarni qayta ishlashni;
- ma’lumotlarni tahlil etish va ularning o’zgarishi ustidan nazorat qilish uslublarini qo’llashni;
- buxgalteriya hisobi va hisobotini rivojlanishi tendentsiyalarini aniqlash maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o’tkazishni;
- buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo’yicha me’yoriy-huquqiy asoslarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- buxgalteriya hisobini to’g’ri tashkil etish hamda yuritish;
- xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo’jalik faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlarni aniqlash;
- uzluksiz ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazilishiga ko’maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma’lumotlarni to’plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida o’quv mashg’ulotlarini o’tkazish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash hamda uni tadbiq etish;

- o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida professional darajada qo'llashga erishish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

- dastlabki va yig'ma hujjatlarni tuzish;
- inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish;
- buxgalteriya hisobotlarini tuzish;
- mehnat va ish haqi hisoblash;
- tavor moddiy zahiralar hisobi va ularni baholash;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi va ularga eskirish hisoblash;
- xususiy kapital va yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash;
- moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

"Buxgalteriya hisobi" fani umumkasbiy fan hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish uchun talaba o'quv rejasida rejalashtirilgan oliy matematika, ehtimollar nazariyasi, informatika va axborot texnologiyalari, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, milliy va jahon iqtisodiyoti, iqtisodiyot nazariyasi fanlaridan etarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshiriladigan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari va ularning natijalarini umumlashtrish, xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va ular harakatini hujjatlashtirish hamda turli xil hisobotlarni tuzish va taqdim etish bevosita buxgalteriya hisobi vazifalaridan hisoblanadi. SHuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan sifatida, korxona (tashkilot)larda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritish nazariy jihatdan ajralmas qismidir.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning "Buxgalteriya hisobi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar va multimedia vositalarini keng joriy etish orqali o'qitish sifatini yanada tubdan yaxshilash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, pedagogik texnologiyalar, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda mavzularga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (1S: Buxgalteriya, Buxgalteriya (VS), Balans, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint), slaydlardan, multimedia vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

**“Buxgalteriya hisobi” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

|                          |          |
|--------------------------|----------|
| Umumiy o'quv soati       | 246 soat |
| Shu jumladan:            |          |
| Jami auditoriya soatlari | 132 soat |
| Ma'ruza                  | 66 soat  |
| Amaliy mashg'ulotlar     | 66 soat  |
| Laboratoriya             | -        |
| Mustaqil ta'lim          | 114 soat |

| №  | Mavzu, bo'lim nomi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | Mustaqil Ish |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|-------------------|--------------|
|    | <b>7-semestr 6-modul –TARMOQLAR VA SOHALARDA BUXGALTERIYA HISOBI:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |         |                   |              |
| 1. | <b>Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish</b><br>Qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari. Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari.                                                                                                                                                                                        | 2       | 2                 | 2            |
| 2. | <b>Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi</b><br>Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakatining hisobi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                | 2       | 2                 | 2            |
| 3. | <b>Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi</b><br>Qurilish mashinalari va mexanizmlari ish faoliyatining hisobi. Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining hisobi. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash usullarini qo'llash xususiyatlari.                                                                                                                                                                                                  | 2       | 2                 | 4            |
| 4. | <b>Qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi</b><br>Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qurilish tashkilotlarida materiallar xarajatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi. Qo'shimcha sarflangan materiallar to'g'risida hisobotni tuzish va unga ishlov berish tartibi. Qurilish tashkilotlarida materiallarning sintetik va analitik hisobi. Qurilish tashkilotlarida materiallar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uni natijalarining hisobi. | 2       | 2                 | 4            |
| 5. | <b>Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hisobi</b><br>Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va analitik hisobi. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash xarajatlarining taqsimoti.                                                                                                                                           | 2       | 2                 | 2            |
| 6. | <b>Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx kalkulyatsiyasining hisobi</b><br>Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi. Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi. Qurilish tashkilotlarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimoti. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari.                                                                                                 | 2       | 2                 | 4            |
| 7. | <b>Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi</b><br>Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlarning hisobi. Qurilish ishlari bo'yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi. Qurilish ishlarini bajarishda bosh pudratchi va subpudratchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarning hisobi.                                                                                                                                                      | 2       | 2                 | 4            |
| 8. | <b>Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar, soliqlar va majburiy to'lovlarning hisobi</b><br>Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi. Qurilish tashkilotlarida soliqqa tortishning xususiyatlari va ularning                                                                                                                                                                                                                                                                         | 2       | 2                 | 4            |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |   |   |   |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|---|
|     | hisobi. Qurilish tashkilotlarida majburiy ajratmalar, yig'imglar va ushlanmalarning hisobi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |   |   |   |
| 9.  | <b>Qurilish tashkilotlarida hisobot</b><br><b>Qurilish tashkilotlarida hisobotlarning turlari va ularni taqdim etish muddatlari.</b> Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish xususiyatlari.                                                                                                                                                                                         | 2 | 2 | 4 |
| 10. | <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish</b><br>Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari.</b>                                                                                                           | 2 | 2 | 2 |
| 11. | <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobi</b><br>Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi. Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobi.                                                                                                                                                                  | 2 | 2 | 2 |
| 12. | <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobi</b><br>Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kiriminig hisobi. <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi.</b>                                                                                                                                               | 2 | 2 | 4 |
| 13. | <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobi</b><br>Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining tasnifi, tavsifi va baholanishi. <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi.</b> Ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi.                                                          | 2 | 2 | 4 |
| 14. | <b>Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish</b><br>Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi. <b>Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kiriminig dastlabki hisobi.</b> Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari. | 2 | 2 | 2 |
| 15. | <b>Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish</b><br><b>Chorvachilik xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi.</b> Chorvachilik xarajatlari va mahsulot kiriminig dastlabki hisobi. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.                                   | 2 | 2 | 4 |
| 16. | <b>Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi</b><br><b>Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi.</b> Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi.                                                                                 | 2 | 2 | 4 |
| 17. | <b>Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar, soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi</b><br>Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi. Qishloq xo'jalik korxonalarida soliqqa tortish bo'yichadavlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi. Qishloq xo'jalik korxonalarida majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi. | 2 | 2 | 4 |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |           |           |           |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|-----------|
| 18. | <p><b>Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish xususiyatlari</b></p> <p><b>Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari.</b> Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya balansini to'lg'azish xususiyatlari. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni to'lg'azish xususiyatlari.</p>                                                                                                                                              | 2         | 2         | 4         |
|     | <b>7-semestr jami:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>36</b> | <b>36</b> | <b>62</b> |
| 19. | <p><b>Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish</b></p> <p>Avtotransport korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Avtotransport korxonalarida hisob siyosatining xususiyatlari. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari.</p>                                                                                                                                                                                                           | 2         | 2         | 2         |
| 20. | <p><b>Avtotransport vositalari va ular ish faoliyatining hisobi</b></p> <p>Avtotransport vositalarining tasnifi, tavsifi va baholanishi. Avtotransport vositalari holati va harakatining hisobi. Avtotransport vositalari ish faoliyati ko'rsatkichlarining hisobi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 2         | 2         | 2         |
| 21. | <p><b>Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarning hisobi</b></p> <p>Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining hisobini tashkil qilish asoslari. Avtomobil yoqilg'ilarining hisobi. Avtomobillar uchun ehtiyot qismlarning hisobi. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiyasining xususiyatlari.</p>                                                                                                                                                                                          | 2         | 2         | 4         |
| 22. | <p><b>Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyasiya qilish</b></p> <p>Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarning tasnifi va tavsifi. Yoqilg'i sarfining hisobi. Ehtiyot qismlar sarfining hisobi. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar bo'yicha xarajatlarning hisobi. Amortizatsiya xarajatlarning hisobi.</p>                                                                                                                       | 2         | 2         | 4         |
| 23. | <p><b>Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyasiya qilish</b></p> <p>Avtotransport korxonalarida boshqa ishlab chiqarish xarajatlarning hisobi va taqsimoti. Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyasiya qilish tartibi.</p>                                                                                                                                                                                            | 2         | 2         | 4         |
| 24. | <p><b>Avtotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning xususiyatlari.</b></p> <p>Avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi. Avtotransport korxonalarida umumxo'jalik faoliyatdan olingan moliyaviy natijalarning hisobi. Avtotransport korxonalarida sof foyda va uni ishlatilishining hisobi. Avtotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotda aks ettirishning xususiyatlari.</p> | 2         | 2         | 4         |
| 25. | <p><b>Soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi</b></p> <p>Avtotransport korxonalarida soliqlarning hisobi. QQS hisob-kitobi va hisobi. Foyda solig'i hisob-kitobi va uning hisobi. Yagona soliq</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 2         | 2         | 4         |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |   |   |   |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|---|
|     | to'lovining hisob-kitobi va hisobi. Avtotransport korxonalarida majburiy ajratmalar, yig'img'lar va ushlanmalarning hisobi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |   |   |   |
| 26. | <p><b>Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari</b></p> <p>Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 2 | 2 | 2 |
| 27. | <p><b>Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi</b></p> <p>Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirish shartlari. Tovar-moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannarxi) va sotish baholarini aniqlash tartibi. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining rasmiylashtirilishi. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini yuritish usullari. Ombor hisobining partiyali va navli usullari. Moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari, ularni tuzish, taqdim etish, tekshirish va tasdiqlash. Ulgurji savdo korxonalarida tovar kiriminin hisobi. Tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarining hisobi. Ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi va uni natijalarining hisobi.</p> | 2 | 2 | 4 |
| 28. | <p><b>Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi</b></p> <p>Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilishning xususiyatlari. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish, taqdim etish va ularga buxgalteriya ishlovini berish. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Chakana savdo korxonalarida idishlar hisobining xususiyatlari. Tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasining xususiyatlari va uni natijalarini hisobi.</p>                                                                                                                                                                            | 2 | 2 | 4 |
| 29. | <p><b>Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobi</b></p> <p>Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilishning xususiyatlari. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobotni tuzish. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | 2 | 2 | 4 |
| 30. | <p><b>Savdo korxonalarida davr xarajatlari hisobi</b></p> <p>Savdo korxonalarida davr xarajatlarini tavsiflanishi. Savdo korxonalarida sotish xarajatlari hisobi. Savdo korxonalarida ma'muriy xarajatlari hisobi. Savdo korxonalarida boshqa operatsion xarajatlar hisobi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 2 | 2 | 2 |
| 31. | <p><b>Savdo korxonalarida daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar hisobi</b></p> <p>Savdo korxonalarida daromadlar hisobi. Savdo korxonalarida xarajatlar hisobi. Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamalarining hisob-kitobi. Savdo korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2 | 2 | 4 |
| 32. | <p><b>Savdo korxonalarida soliq to'lovlari, majburiy ajratmalar va ushlanmalar hisobi</b></p> <p>Savdo korxonalarida soliq to'lovlarinin hisobi. Yagona soliq to'lovining hisobi. AYoQShlarida yoqilg'i iste'moli uchun soliq va yagona soliq to'lovi hisobining xususiyatlari. Yalpi daromad solig'i hisob-kitobining xususiyatlari. Savdo korxonalarida majburiy ajratmalar</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 2 | 2 | 4 |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |           |           |            |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|------------|
